

## **TA'LIM METODLARINI TO'G'RI QO'LLASHNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI.**

***Ikromova Maqsuda Baqoyevna***

“O'zbek tili va adabiyoti, xorijiy tillar” kafedrasi asisenti.

*Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari  
instituti Milliy Tadqiqotlar Universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish  
instituti. Buxoro sh, O'zbekiston*

Tel: (93) 454 15 70

*e-mail: ikromovam1969@umail.uz*

***Xakimova Gulrux Abdunabiyevna***

*Buxoro viloyat yuridik texnikumi*

“Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrasi o'qituvchisi

Tel: 998 (93) 450 28 33

*e-mail: xakimovagulrux92@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limg metodlarining mazmun-mohiyati, ularning turlari va ularga turlicha yondashuvlar hamda ularni takomillashtirish yo'llari, ta'limg vositalari, shuningdek, ta'limg uskunaviy didaktik asoslari bilan tanishtirish yoritib borilgan. Shu bilan birgalikda darsning qaysi qismlarida qanday ta'limg metodlarini qo'llash kerakligi va ularning dars unumdorligiga ta'siri haqida ham ma'lumot berib o'tilgan.

Shuningdek o'qituvchilarda global tafakkur, kompetentlik, professionallikni shakllantirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'limg turlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ulardan o'z pedagogik faoliyatlarida samarali foydalanishlarini ta'minlash ko'zda tutilgan. Ta'limg tizimida zamonaviy ta'limg metodlaridan foydalanish, o'quv jarayonida treninglar, yakka tartibda, juftlikda, kichik guruuhlar va jamoada ishlashni tashkil qilgan holda ilg'or ta'limg metodlarini amaliyotga joriy qilish hamda pedagogik jarayonga yangicha yondashuv masalalariga bag'ishlangan.

**Tayanch tushunchlar:** ta'limg, metodika, ta'limg vositalari, didaktika, interfaol usul, yelpig'ich metodi, paradokslar metodi, esse metodi.

### **THE INFLUENCE OF CORRECT USE OF EDUCATIONAL METHODS ON THE QUALITY OF EDUCATION.**

**Annotation:** In this article, the essence of educational methods, their types and different approaches to them, as well as ways of improving them, educational tools, as well as an introduction to the didactic fundamentals of education have been covered. At the same time, information was provided about what educational methods should be used in which parts of the lesson and their effect on the productivity of the lesson.

*It is also intended to develop global thinking, competence, professionalism, theoretical and practical training, knowledge, skills and abilities of independent education, and to ensure that they use them effectively in their pedagogical activities. caught. It is dedicated to the issues of using modern educational methods in the educational system, training in the educational process, implementation of advanced educational methods in the organization of work individually, in pairs, small groups and teams, and a new approach to the pedagogical process.*

**Key words:** *education, methodology, educational tools, didactics, interactive method, fan method, method of paradoxes, essay method.*

## **ВЛИЯНИЕ ПРАВИЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ ОБРАЗОВАНИЯ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ.**

**Аннотация:** В данной статье освещены сущность методов обучения, их виды и различные подходы к ним, а также пути их совершенствования, средства обучения, а также введение в дидактическую технику обучения. При этом была дана информация о том, какие воспитательные методы следует использовать в каких частях урока и их влияние на продуктивность урока.

Он также направлен на развитие глобального мышления, компетентности, профессионализма, теоретической и практической подготовки, знаний, навыков и умений самостоятельного образования, а также на то, чтобы они эффективно использовали их в своей педагогической деятельности. Использование современных методов обучения в системе образования, обучение в учебном процессе, внедрение передовых методов обучения в организацию работы индивидуально, в парах, малых группах и командах, новый подход к педагогическому процессу посвящены вопросам .

**Ключевые слова:** *обучение, методика, средства обучения, дидактика, интерактивный метод, веерный метод, метод парадоксов, метод эссе.*

*Agar bolalar erkin fikrlashni o'rjanmasa, berilgan ta'lif  
samarasi past bo'lishi muqarrar.*

I.A. Karimov

Ta'lif metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarii amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi.

Muayyan ta'lif-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lif metodini hosil qiladi.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lган bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lни aytildi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, mактабгача ta'lim muassasasida o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Demak har bir harakat ma'lum yo'lda va shunga muvofiq metodda amalga oshiriladi.

Metod – (grekcha "mетод" so'zidan olingan bo'lib, yo'l, ahloq usuli ma'nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Uslug – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lган usullar majmuasi.

Yo'l (ruscha – priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rindan, har bir ta'lim metodi tarkibiga muayyan ta'lim-tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgan ish-harakat usullari, yo'llari kiradi.

Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan ta'lim metodlari xil hamda ko'p sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va boshqa sifatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bundan ko'rini turibdiki, bu metodlarning har biri muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar uchun mos bo'lib, uning o'rniga boshqa metodni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Chunki boshqa metod ushbu maqsad uchun mos emas ekanligi ma'lum.

Shu sababli ta'lim metodlarining qaysinisidan qaysi maqsad uchun foydalanish ko'zda tutilgan samarani berishini bilish muhim ahamiyatga ega.

Lekin bu masala hozirgacha to'liq o'r ganilgan emas. Bu masala avvalo ta'l im metodlarini ma'lum belgilariga ko'ra turlarga ajratib olish va ularning asosiy xarakteristikalarini aniqlashni talab qiladi. Shuni hisobga olgan holda zamonaviy ta'l im metodlarini turlarga ajratish dolzARB masaladir. Buni hal qilish uchun zamonaviy ta'l im metodlarining turlarga ajratish uchun zarur bo'lGAN asosiy belgilarini aniqlab olish lozim. Bu belgilar quyidagilar bo'lishi mumkin:

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'l im-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoxda.. Shu bilan birga, interfaol ta'l im metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'l im-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'l im metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'l im maqsadi, ta'l im oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'l imning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'l im oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'l im jarayonining markazida ta'l im oluvchi bo'lGAN metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'l im beruvchi ta'l im oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'l im oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'l im oluvchi markazda bo'lGAN yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

ta'l im samarasini yuqoriqbo'lGAN o'qish-o'r ganish;  
ta'l im oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;  
ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;  
ta'l im jarayoni ta'l im oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;

ta'l im oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;

amalda bajarish orqali o'r ganilishi;

ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'l im amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'r ganish va amalda qo'llash o'quvchi-

talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lismetodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiylulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lismetodiyalar, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lismetodlari quyidagilar sanaladi:

Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lism" va b.

Interfaol ta'lismetodiyalar."Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lismetodlari tarkibidan interfaol ta'lismetodiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lismetodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lismetodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol ta'lismetodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtida qo'llanmokda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lismamaradorligini yaxshilashga xizmat qildi.

Shu munosabat bilan yuqoridagi tasnif bo'yicha hozirgi ayrim interfaol ta'lismetodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi shartli ravishda quyidagi 8-jadvalda keltirildi.

Bu jadvaldagi ayrim interfaol ta'lismetodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi bir muncha shartli va aslida muayyan o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan boshqa yana ko'p interfaol metodlarni aniq maqsadlar yo'lida qo'llash mumkin

ekanligini alohida ta'kidlash zarur.

### Yelpig'ich (VEER) METODI

*Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, ko'pincha muammoli xarakterga ega bo'lgan mavzularni o'rghanishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, unda mavzuning barcha jihatlari (masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari, boshqa fazilatlari) to'g'risida bir yo'la sharh beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida belgilanadi va tegishlicha muhokama etiladi.*

*Bu interfaol metod o'quvchi talabalarda tanqidiy, tahliliy, aniq, mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatli rivojlanishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.*

*Yelpig'ich metodi umumiy mavzuning ayrim jihatlarini alohida muhokama qiluvchi kichik guruhlarning hamda har bir ishtirokchining va shu bilan birga, butun guruhning faol ishlashini tashkil qilishga yo'naltirilgan.*

*Yelpig'ich metodini mavzuni o'rghanishning turli bosqichlarida qo'llash mumkin:*

*boshlanishida: o'quvchi-talabalarning bilimlarini erkin faollashtirish;*

*mavzuni o'rghanish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;*

*yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.*

*Bu metodni qo'llashda mavzu bo'yicha quyidagi asosiy tushunchalar o'rganiladi:*

*mavzuga tegishli tushunchalar, nuqtayi nazarlar, predmet, hodisalar;*

*afzallik – biror narsa bilan qiyoslagandagi ustunpik, imtiyoz;*

*nuqson—nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik;*

*fazilat – ijobjiy sifatlar;*

*xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.*

*Yelpig'ich metodi ta'lim maqsadidan tashqari tarbiyaviy xarakterdagi quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini ham beradi:*

*jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;*

*muammolar, vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan muhokama qilish mahorati;*

*murosali qarorlarni topa olish mahorati;*

*o'zgalar fikriga hurmat;*

*xushmuomalalik;*

*ishga ijobjiy yondashish;*

*faollik;*

*muammoga diqqatini jamlay olish mahoratini shakllantirish va  
mustahkamlash.*

**“Qor bo’ron” metodi**

Ikkiga ajratilgan guruh talabalari bir muammo yuzasidan eng ko’p to’g’ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to’g’ri javob yumaloqlangan qor ko’rinishida o’sha guruh hisobiga yozib qo’yiladi; to’plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo’lishi mumkin. Guruhlar qo’yilgan muammoni ma’lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma’lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

### **“ESSE” METODI**

Esse fransuz tilidan tarjimada “tajriba, andaza” ma’nolarini anglatadi. Esse – prozaik etyud, qandaydir bir predmetga oid umumiy yoki dastlabki mulohazalar. Ko’pincha esse yozish mashg’ulotning boshida, yoki refleksiya sifatida, ohrida taklif etiladi. Esse yozish ko’pincha nazariy mashg’ulotlar, ma’ruzalar hamda mustaqil mashg’ulotlar tarkibida o’tkaziladi. Uning quyidagi turlari tegishli maqsadlarga muvofiq holda qo’llaniladi:

Esse – taklif etilgan mavzu yuzasidan 1000 dan 5000 gacha so’z hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning ta’kidlab o’tadigan individual nuqtayi nazarini erkin ifoda etish shakli; qandaydir mavzu bo’yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o’z ichiga oladi.

Asoslangan esse – qo’yilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdir. Muallif ma’lum bir nuqtayi nazarni egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o’zining nuqtai nazarini qo’llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish.

Asoslangan samarali esse yozish uchun agar siz o’z esseingizni yozish jarayonida uni fikriy jihatdan kitobxonlarga (uni o’quvchilarga) “taqdim eta olsangiz” va ular bilan fikriy muloqot o’rnata olsangiz, uni yozishingiz engil bo’ladi.

### **PARADOKSLAR METODI**

Pedagog ma’ruzani olib borish jarayonida talabalarning qarama-qarshilikka (tushunchalardagi, bilimlardagi) duch kelishlarini ta’minlaydi. Bunday vaziyat asosan talabaning tushunchalaridagi adashishlar va xatoliklar bilan bog’liq. Demak, bu muammoli vaziyat talabalarning oldingi fikr,

tushunchalari va xulosalariga qarama-qarshi, paradoksal bo'lgan vaziyatdir.

Talabalar muammoli vaziyatni yuzaga keltirgan amallardagi xatolikni izlaydilar (lekin amallarda xatolik yo'q).

Ijodiy fikrlay oladigan talaba amallarning bajarilishi jarayoni emas, balki mazkur amalning o'zi xato ekanligini aniqlay oladi (bunday talaba topilmasa, o'qituvchining o'zi buni oshkor qilishiga to'g'ri keladi).

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta'lif metodlarini tanlash nimalarga bog'liq, degan masaladir. Didaktikaga oid adabiyotlarda ta'lif metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligining turli omillar bilan bog'liqliklari quyidagicha qayd qilinadi: birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq; ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning harakteriga bog'liq; uchinchidan, ta'lif oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq; to'rtinchidan, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq; beshinchidan, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq; oltinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq. Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuuning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lif olish jarayonida ta'lif metodlari, vositalari va ularni to'g'ri va o'rinali qo'llash muhim ahamiyatga ega. Va ular ta'lif samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y
2. O'.Asqarova, M.Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
3. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y
4. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
5. M.To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y
6. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lif metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017
7. Xaydarov, S. A. (2021). Mamlakat tarixini o'qitishda tasviriy san'atdan foydalanishning o'mi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. YANGI FANI. Konferentsiya materiallarida (41-43-betlar).
8. Психологическая служба образования: от теории к практике. учебно-методическое пособие. Ш.Р.Баратов, Д.Ш.Баротова, М.Н.Усманова. – Бухоро: Дурдона, 2017. – 172 с.

9. Мясищев, В.Н. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений человека [Текст] / В.Н. Мясищев ИИ Психологическая наука в СССР. - 1960.-Т.2. -С.. 110-125.
10. Абульханова-Славская, К.А. Деятельность и психология личности [Текст] / К.А.Абульханова-Славская. – М.: Наука, 1980. -335 с.
11. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. –Toshkent, 2007.
12. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. –Toshkent, Fan va texnologiya. 2010.
13. Pedagogika. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
14. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
15. Djurayev R.X. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug‘ati. –Toshkent, Fan, 2008.
16. O‘.Asqarova. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar; O‘quv qo‘llanma.– Toshkent, Istiqlol, 2005.
17. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
18. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex
19. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУГОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУГОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
20. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).